

## **O`ZBEKISTON ME`MORCHILIGI TARIXIGA BIR NAZAR**

*Abdullayev Zohidjon Tolibjon og'li*

*NamDu, Tarix yo'nalishi talabasi*

**Anotatsiya:** O'zbekiston me'morchiligi merosida minora va minorasimon inshootlarni qadimdan shakllangan namunalari, xududimizning turli shahar va maskanlari me'moriy tizimida alohida o'rinn tutgan. Sharq me'morchiligidagi minoralar turli me'moriy yechimi va funksional sifatiga ega bo'lgan ko'plab namunalari bunyod etilgan.

**Kalit so`zlar:** Davr, me'morchilik, bezak, tizim, inshoot, kompozitsiya, majmua, burchak, tarix, shahar

Markaziy Osiyo me'morchiliginining Temuriylar davri me'moriy bezak san'atidagi qirqma koshin qoplamlari, sirkor koshinli muqarnas va sharafalar bilan butkul bezatilgan minora-guldastalar, burjlarning shakliy-hajmiy yechim usullari Mag'rib va Yaqin Sharq, Xuroson minorasimon inshootlariga qaraganda bir muncha salobatli, mahobatli inshootlarning umumiy me'moriy kompozitsiyasiga uyg'un ravishda yaratishga qaratilgani bilan farqlanadi. Temuriylar davri me'morchiligidagi Jome' masjidlar, ulkan madrasalar va saroylarning me'moriy jihatdan tugal ko'rinish olishida bu minorasimon hajmlar muhim vosita bo'lib keldi. Hatto, davrlar mobaynida yuqori bo'g'inlari tushib ketgan bo'lsada, Samarqanddagi Ulug'bek madrasasidagi burj-minoralar, Go'ri Amir majmuasi hovlisi burchaklarini belgilovchi minoralar, Bibixonim jome' masjidida saqlanib qolgan peshtoq yon guldastalari, hozirda ham o'zlarining muqarnasli qoldiqlari bilan nisbatan tugal me'moriy hajmdek tasavvur uyg'otadi. Chunki, ularning har bir hajmiy qismi me'moriy ishlov jihatdan mukammaldir. O'zbekiston minoralar me'morchiligi tarixida Xorazm minoralari alohida o'rinn tutadi. Shahar ko'rinishiga chiroy baxsh etgan, ko'chalarga fayz kiritgan shaklan va hajman turli-tuman bo'lgan sharqdan – Xazorasp darvozasidan Ichan qal'a orqali g'arbga qarab har 200 m masofada bir

maqomda qator terilgan Polvon qori, Said Sholikorboy, Juma, Kalta minor va Shayx Qalandar bobo minoralari Xivaga takrorlanmas go‘zallik baxsh etgan.

O‘zbekiston me’morligi juda qadimiyligi, turli-tuman me’moriy yodgorliklari, yuksak nafosat mujassami bo‘lgan mahobatli osori-atiqalari bilan diqqat-e’tiborni tortadi. Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi eng qadimgi madaniyat markazlari hozirgacha arxeologik yodgorliklar qa’ridan ajoyib me’moriy xazinani namoyish etmoqda. (Sopollitepa, Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqal’a, Afrosiyob, Varaxsha, Poykend, Qanqa kabi). Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo‘qon kabi ko‘hna shaharlar o‘zining noyob me’moriy obidalari (Somoniylar maqbarasi, Mag‘oki Attori, Chashmai Ayyub, Poyi Kalon majmui, Labi hovuz majmui, Samarqand Registoni, undagi Ulug‘bek madrasasi, Sherdor madrasasi, Tillakori masjid-madrasa va boshqalar) bilan dunyoga tanilgan. O‘zbekiston me’morligi taraqqiyoti davrlari ichida tarixan eng ajoyibi Amir Temur va Temuriylar davri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uni Uyg‘onish — Sharq Renessansi sifatida ta’riflash odat bo‘lib qolgan, "yer yuzining sayqali" Samarqand, "bilim va odob gumbazi" Kesh — Shahrisabz shaharlari, ayniqsa Amir Temur sa'y-ehtimoli, me’moriy vayu-yati (valiylikning ko‘pligi) va karomati tufayli tubdan qayta qurildi. Oqsaroy, Ko‘ksaroy ko‘shklari, Dor us-Siyodat madrasasi, Ko‘k gumbaz, Jome’ masjid kabi mahobatli va hashamatli binolar qad ko‘tardi.

O‘zbekiston me’moriy merosidagi minora va minorasimon inshootlarning ushbu turlanishi quyidagi mezonlarga ko‘ra belgilandi:

1. Tarixi: alohida joylashgan minoralar karvon yo‘lida, cho‘l-sahro hududlari, kimsasiz tog‘-daralarda kuzatuv, yo‘l ko‘rsatgich, signal, xavfsizlik, qorovul minorasimon qurulmalaridan kelib chiqqan. Shaharlarda esa baland minorasimon qurulmalar qal’a, qo‘rg‘onlar tarkibida, hamda sug‘orish dehqonchilik hududlaridagi yakka qal’a, himoya qo‘rg‘onida qorovulkxonasi, kuzatuv minorasi ko‘rinishida qilingan. Bu vazifani yirik shaharlarda Buxorodagi Kalon minorasi kabi baland inshootlar ham bajargan. Manbalarga ko‘ra minora qafasasi ravvoqlariga olov, sham yoqib qo‘yilgan va

ular tunda shaharlardan 50-60 chaqirim naridagi karvon uchun mayoq bo‘lib xizmat qilgan. Burj va guldastalardagi minoralar kelib chiqishiga qadimda, ilk o‘rta asrlardagi ko‘shk, qal’a, qo‘rg‘onlar himoya burjlari, shahar darbozalari yon himoya guldastalari me’moriy asos bo‘lgan.

Mahobatli inshootlardagi minoralar turlarga bo‘linadi:

a) hovli devori, bino chekkalaridagi nisbatan mustaqil ko‘rinadigan bir yoki ikki bo‘g‘inli minoralar.

b) peshtoqqa yondoshgan yoki bino hajmidan bir muncha yuqori joylashtirilgan guldasta-minoralar.

v) XVI asrlarda shakllangan kichik guzar masjidlari hajmidagi minorasimon mezana, fonus qurulmalari. Ularning yana bir turi, ko‘cha yuzasiga qaragan masjid darbozaxonalari yuqorisidagi azon aytishga mo‘ljallangan uncha katta bo‘lmagan mezana-minorachalar.

2. Joylashuviga qarab alohida quriladigan minoralar quyidagi turlarga bo‘linadi:

a) yirik shahar va maskanlardagi katta jome’ masjidlari oldidagi baland minoralar: Buxoro, Vobkent, Ko‘hna Urganch, Xiva minoralari. Ularning aksariyati shahar markazida joylashgan.

b) mashhur ziyoratgoh maskanlardagi masjidlar qoshidagi katta, kichik minoralar. Masalan: Bahouddin Naqshband, Chor Bakr, Mahdumi A’zam, Zangiota ziyoratgohlari va boshqalar;

v) mahalla, guzar markazlaridagi masjidlar oldidagi kichik minoralar: Buxoro, Samarqand, Xiva mahallalari shular jumlasidan.

g) yirik Jome’ masjidlari, ziyoratgohlar hovlisi o‘rtasidagi minoralar: Andijon, Qo‘qon jome’ masjidlari minoralari, Zangiota ziyoratgoh majmuasidagi minora shular jumlasidan.

3. Burj-guldasta minoralari turlari:

- a) yirik mahobatli inshootlarning hajmining burchaklari va peshtoq yonlaridagi ko‘p bo‘g‘inli minorasimon qurulmalar: Samarqanddagi Bibixonim masjidida, Ulug‘bek, Sher dor madrasasida ularning nodir namunalari mavjud.
- b) darvoza, chortoq, madrasa peshtog‘i kabi me’moriy inshootlar yon guldastasining yuqorisidagi mezana, fonussifat minora qurilmalari.
- v) darbozaxonalar, maqbaralar, ayrim masjid, madrasalar yonlaridagi qalin guldastalar, aksariyati yuqorisi dandana yoki sharafa bilan tugallangan.

Ular O‘zbekistonning barcha hududlarida ommaviy ravishda qurilgan inshootlaridagi me’moriy element sifatida shakllangan. Yuqoridagi mezonlardan tashqari minoralar shakliga, bezak hashami va yuqorida tugallanadigan me’moriy elementlari bilan ham farqlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Воронина В.Л. Сырцовые минареты верховьев Зарафшона. Труды АН Таджикской ССР. т. CXX. 1960.
2. Всемирная история архитектуры. Том 8. М.1968.
3. Гиясиддин Жамшид Коший. Ключ арифметики трактат об окружности. М.1956.